

O'QISH SAVODXONLIGI ONA TILI DARSLARINING ASOSIY MAQSADI SIFATIDA

Ergasheva Dilnoza Dilmurotovna

Alfraganus universiteti magistranti

Ilmiy rahbar: Yuldasheva Shaxlo Shukurlayevna

Annotatsiya: Rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakaning qay darajada shakllanganligi, uni hayotga tadbiq etishga tayyorgarlik darjasini aniqlash ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarda o'qish savodxonligini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. O'qish savodxonli aynan ona tili darslarimizning asosiy maqsadidir. Chunki savodxon o'quvchi har sohada muvaffaqiyatga erisha oladi hamda jamiyatda o'zining munosib o'rniga ega bo'ladi. Bu jarayonning qay tarzda amalga oshirilayotganligi sinov orqali tekshiriladi. Aynan, PISA tadqiqotlari bilimlarni sinovdan o'tkazish va taqqoslashga imkoniyat yaratadi.

Kalit so'zlar: *PISA tadqiqotlari, o'qish savodxonligi, matematik savodxonlik, tabiiy fanlar savodxonligi, o'qib-tushunish, tahlil, ko'nikma, malaka, muloqot, nutqiy rivojlanish, matn, kompetensiya.*

Kirish. Bugungi kunda fan va texnika sohasi yanada rivojlanib bormoqda. Dunyo yangiliklarni har doimgidan ham tezroq qabul qilib amaliyotga tadbiq etish jarayonida. Bunday vaziyatda axborotlar ko'lamining ortganligi va ularni saralab olish ko'nikmalarini shakllantirish anchayin ustuvorlik kasb etadi. Shunday ekan jamiyat mavjud bilim va ko'nikmalarni qabul qilishga tayyor bo'lishi kerak. Bu jarayon matnlar bilan ishlash orqali rivojlanadi. O'quvchi o'qish orqali ma'lumotlarni tushunish, foydalanish, baholash va mulohaza yuritish ko'nikmalarini shakllantiradi. Qabul qilish, saralash, tahlil etish jarayonlarining rivojlantirilishi ayni vaqtda davr talabi desak adashmaymiz. Chunki duch kelgan ma'lumot bilan ishlash kishida ikkilanishni vujudga keltiradi va vaqtni zoye ketishiga sabab bo'ladi.

Asosiy qism

Bolada olam haqidagi dastlabki tushunchalar dunyo yuzini ko‘rishi bilan vujudga kela boshlasa, maktabgacha ta’lim va o‘rta maxsus ta’lim davrida u yanada rivojlanadi. Ma’lumotlar bilan ishlash ko‘nikmasi asosan maktab yoshida shakllanadi. Chunki asosiy bilim va ko‘nikmalarni qabul qilish mana shu davrda yuz beradi. Ta’lim jaryonida turli fanlarga oid bilimlar matn ko‘rinishida beriladi. Matn bilan tanishish, o‘qib tushunish, tahlil qilish orqali ma’lumotlar qabul qilinadi. Bularning barchasi savodxonlik orqali amalga oshiriladi. Ta’limda savodxonlik tushunchasi ostida dastlabki bilimlarni egallash, tez o‘qish ko‘nikmalari tushunilar edi. Ayniqsa, bu boshlang‘ich ta’limda yanada yaqqolroq ko‘rinadi. Bundan o‘n, o‘n besh yillar ilgari bir daqiqada nechta so‘z o‘qish orqali o‘quvchidagi savodxonlik darajasi belgilanardi. Bu ham ta’limda o‘ziga xos yondashuv edi. Ammo bugungi kun ta’limida o‘qish savodxonligi maqsad doirasi birmuncha kengroq tushunilmoqda. Hozirgi davr ta’limining oldiga qo‘ygan maqsadlarida o‘zgarishlar yuz bermoqda. Negaki, “keng omma orasida ma’lumotlar va kommunikatsiya texnologiyalarining (ICT) ommalashuvi natijasida insonlarning o‘qish tarzi yozma manbaalardan raqamli matnlarga o‘zgardi”.(1) Buni zamon, rivojlanish, texnika taraqqiyotining yanada ildamlab borishi bilan izohlashimiz mumkin. Ma’lumotlar bilan ishlash, tahlil qilish, yuzlab matnlar orasidan maqbulini saralab olish ko‘nikmalarini rivojlantirishda esa o‘qish savodxonligining ahamiyati kattadir. Ayniqsa, o‘qish uchun olinayotgan manbalarning ko‘pligi (yozma manbalar, raqamli matnlar) ham o‘qish savodxonligi rivojlanib boruvchi holat ekanligini ko‘rsatdi. Biz buni davrlar silsilasida yaqqol ko‘rishimiz mumkin. O‘n, yigirma yil oldingi kitobxon bilan bugungi kitobxon savodxonligi orasidagi farq ham bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Bugungi kunda tez-tez tilga olinayotgan PISA ta’lim turining maqsadi ham aynan o‘quvchilarning savodxonligi masalalari bilan bog‘liq.

PISA tadqiqoti Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti(IHTT), Organization for Economic Cooperation and Development(OECD) tomonidan amalga oshiriladi. Tadqiqot ilk bora 2000-yili o‘tkazilgan va 3 yilda bir marotaba o‘tkaziladi. PISA tadqiqotlari har uch yilda tashkil

etilishiga sabab shuki, PISAning asosiy vazifasi a'zo mamlakatlarni ta'lim siyosatiga oid ma'lumotlar bilan ta'minlash, qarorlar qabul qilishda ularni qo'llab-quvvatlashdan iborat. Tadqiqotning har uch yilda o'tkazilishi esa mamlakatlarga siyosiy qarorlar va tegishli dasturlarning ta'sirini hisobga olish uchun ma'lumot va tahlillarni ichiga olgan holda o'z vaqtida axborot berish imkoniyatini yaratadi".(2) Bu ta'lim turi o'quvchilarning o'qish, matematika, tabiiy fanlardan savodxonligini baholashga qaratilgan bo'lib, 15 yoshli (15 yosh 3 oydan 16 yosh 2 oygacha) o'quvchilar qatnashadilar. Yosh ko'rsatkichining bu tarzda belgilanishining asosiy sababi esa aksariyat mamlakatlarda majburiy ta'limning yakuniy davri bilan bog'liq.

PISA ta'lim turining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat.

O'qish savodxonligi: Insonning matn shaklida berilgan ma'lumotlarni tushina olish va ularga reaksiya bera olish ko'nikmasi, jamiyat hayotida faol qatnashish jarayonida o'qigan ma'lumotlaridan o'z maqsadlari yo'lida foydalana olish, bilim va imkoniyatlarini oshira olish layoqati. Bu yerda, o'qish savodxonligi tushunchasi keng ma'no kasb etadi. Bu yo'nalish maqsadi o'quvchining berilgan badiiy asardan parcha, biografiya, xat, hujjat, gazeta va jurnallardan olingan maqolalar, turli qo'llanmalar, geografik kartalar kabi rangba rang tematikadagi, tarkibida matnni ochib berishga mo'ljallangan diagrammalar, rasmlar, kartalar, grafik va jadvallar berilgan matnni tushinishi, mazmuni haqida fikr yurita olish, matn mazmuniga baho berish va o'qiganlari haqida o'z fikrini bera olishi kabi kompetensiyalarini aniqlash hisoblanadi.

Matematik savodxonlik: Insonning matematikaning o'zi yashayotgan olamdagi o'rnini bilishi, matematik jarayonlarni to'g'ri va to'liq asoslay olishini tekshiradi. Shaxsning matematikadan yaratuvchan, qiziquvchan va fikrlovchi insonning hozirgi va kelajakdagi matematik bilimlarga bo'lgan ehtiyojini qondira oladigan darajada foydalana olishini ta'minlash bu bo'limning asosiy maqsadidir. Bu bo'limdagi savodxonlik terminidan bu bo'lim maqsadi odatda maktab dasturida beriladigan bilimlarni qay darajada o'zlashtirganini aniqlash emasligini ko'rsatish uchun foydalanilgan. Asosiy e'tibor matematik bilimlardan turli xil hayotiy vaziyatlarda fikrlash va intiutiv qaror qabul qilish talab

qilinadigan turli uslublaridan qo'llagan holda foydalana olish nazarda tutiladi. Lekin bu turdagi savollarga javob berishda maktab dasturida beriladigan bilim va ko'nikmalar zarur bo'lishi mumkin.

Tabiiy-ilmiy fanlar savodxonligi: Hayotiy hodisalarda ilmiy usulda hal qilinishi mumkin bo'lgan muammolarni aniqlash, kuzatuv va tajribalar asosida xulosalar chiqarish kompetensiyasi. Bu xulosalar atrofimizdagi olamni tushinish va inson faoliyati natijasida unda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni anglab yetish, shunga ko'ra kerakli qarorlar qabul qila olish ko'nikmasini rivojlantirish bu bo'limning asosiy maqsadidir. Bu savodxonlik asosi bizning maktablarimizda fizika (astronomiya elementlari bilan birga), biologiya, kimyo va geografiya fanlari o'qitilish jarayonida berilishi ko'zda tutilgan". (3)

O'quvchilarning savodxonlik darajasini aniqlashda bu yo'nalishlardan olgan bilim va ko'nikmalarini sinovdan o'tkazish va tahlil qilish orqali yanada rivojlantiriladi. O'qish savodxonligi esa bu uch yo'nalishdan biri sanalib, "ilk PISA siklida (PISA 2000 tadqiqotida) baholangan asosiy bilim sohasi hisoblanadi. To'rtinchi PISA sikli uchun (PISA 2009) o'qish savodxonligi asosiy bilim sohasi sifatida qayta ko'rib chiqildi va uning qamrov doirasini to'liq ko'rib chiqilishi va uning xususiyatini belgilab beruvchi yangi qirralarini rivojlantirishi talab etildi. Yettinchi PISA (2018) sikli uchun qamrov doirasi yana bir bor qayta ko'rib chiqildi".(4) Bu jarayonda raqamli matnlar bilan ishlash hamda ularni o'qib-tushunish ko'nikmalarini shakllantirishga katta e'tibor qaratildi. Yuqorida aytib o'tilganidek, bugungi kun o'quvchilarining aksariyati turli ma'lumotlar bilan ishlash jarayonida raqamli matnlarga duch kelmoqda. Faqatgina kompyuter emas telefon, planshet va boshqa elektron qurilmalar orqali ham o'qish, ma'lumot olish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar va bu jarayon kundan kunga rivojlanib bormoqda. Bu esa raqamli matnlar bilan ishlash, o'qib-tushunish yo'l-yo'riqlarini o'rganishga bo'lgan ehtiyojni oshiradi. Avvalo, ona tili darslarimizda o'quvchilarga matn bilan qanday ishlash kerakligi o'rgatilishi lozim. O'qigan ma'lumotini yaxshilab uqib olishi uchun uni tushungan bo'lishi, tahlil qila olishi kerak bo'ladi. Bu o'rinda o'qib tushunish ko'nikmasi yuqori planga chiqadi. Ismadiyorova Nafisaxon o'zining "O'qish

savodxonligini rivojlantirish xalqaro tadqiqotlarning asosi sifatida” nomli maqolasida o‘qib-tushunish jarayonini yaxshilashga xizmat qiluvchi bazi tavsiyalar bergan:

1. O‘quvchining boshi bir joyda turgan holda faqat ko‘z orqali matnni o‘qish uni tushunishga xizmat qiladi.
2. Matnni lablar bilan emas, balki ko‘z bilan o‘qing, lab bilan o‘qilgan matn ma’lum darajada tashqarida qoladi, agar ko‘z bilan o‘qilsa, o‘qish jarayonidagi miya ishtiroki yuqori bo‘ladi.
3. O‘qish jarayonida o‘qilayotgan manbaani ongda tasvirlash, matnni tushunib, eslab qolishda katta ahamiyatga ega.
4. O‘qish va uqish jarayoni ma’lumotni majburlab o‘qish vaziyatida paydo bo‘lmaydi, uni zavqlanib oqish kerak. Olayotgan bilimdan rohatlanish ko‘nikmasini hosil qilish kerak bo‘ladi.
5. Men ko‘prog‘ini tushuna olaman deb o‘qish talab etiladi va matnni o‘qishdan oldin o‘quv faoliyatidan maqsadni aniqlashtirish muhim.
6. O‘qish savodxonligini oshirish uchun har kuni, muntazam ravishda o‘qilsa, samarasi yuqori bo‘ladi.
7. Matn tarkibidagi tushunchalarni izohlab, o‘quvchi o‘ziga savol berishi va so‘ng unga javob topishi o‘qib tushunish jarayonini tezlashtiradi.
8. Oxirgi bosqichda matnni yana qayta o‘qing va shu paytda ma’lumotlarni pichirlab so‘zlash foydadan holi bo‘lmaydi.(4)

Matnni to‘g‘ri o‘qib-tushunish, tahlil qilish to‘g‘ri fikr yuritib, munosabat bildirish olish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu esa insonlar bilan aloqa o‘rnatishda ustuvor o‘rin egallaydi. Demak, PISA tadqiqotlari o‘quvchilarni birgina ta’lim sohasida emas balki, mustaqil hayotga tayyorlovda ham muhim o‘rin tutar ekan. Aslida bugungi kun ta’limidan ko‘zlangan asosiy maqsad ham shu, o‘quvchilarning bilim olish jarayoni faqatgina maktab davri bilan kifoyanlanmasligi kerakligini ko‘zda tutmoqda. O‘rta ta’limdan keyingi davr faoliyatida qaysi soha vakili

bo'lishlaridan qat'iy nazar egallangan bilim o'z o'rnida amaliyotga tadbiq etilishi kerak.

”2022- yilda O'zbekiston maktablari 15 yoshli o'quvchilar bilimini baholash bo'yicha xalqaro dastur – PISA imtihonlarida ilk marta ishtirok etgan edi. Sinov natijalariga ko'ra, o'zbekistonlik bolalar 81 ta mamlakat orasida matematika bo'yicha 72-o'rinni, tabiiy fanlar va o'qish savodxonligi yo'nalishlarida 80-o'rinni egalladi. Testda 81 mamlakatdan 15 yoshli 690 ming o'quvchi qatnashgan. Ular o'z mamlakatlaridagi 26 million o'quvchining o'rtacha bilimini aks ettiradi. Sinovda o'zbekistonlik o'quvchilar natijalari quyidagicha bo'ldi.

Matematika, tabiiy fanlar va o'qish savodxonligi bo'yicha bilimlar 6 ta darajaga bo'lib o'lchangan. Uchala yo'nalishda ham birorta o'zbekistonlik o'quvchi 5- yoki 6-darajadagi natijani qayd eta olmagan:

Matematik savodxonlik bo'yicha:

14,4 foiz o'quvchi – 2-daraja

4,2 foiz o'quvchi – 3-daraja

0,7 foiz o'quvchi – 4-daraja

O'qish savodxonligi bo'yicha:

12,2 foiz o'quvchi – 2-daraja

1,8 foiz o'quvchi – 3-daraja

0,1 foiz o'quvchi – 4-daraja

Tabiiy-ilmiy savodxonlik bo'yicha:

16,5 foiz o'quvchi – 2-daraja

2,2 foiz o'quvchi – 3-daraja

0,1 foiz o'quvchi – 4-daraja”.(5)

Bu ko'rsatkichlar o'quvchilarning savodxonlik darajasiga yanada ko'proq e'tibor berishimiz kerakligini ko'rsatib turibdi. PISA topshiriqlarida asosan o'quvchi nutqini rivojlantirish orqali muloqotga kirishish jarayoniga tayyorlashni nazarda tutadi. Bu jarayon matnlarga tayangan holda amalga oshiriladi. Matnlar bilan esa o'quvchilar har bir fan doirasida shug'ullanadilar. Ona tili darslari faqatgina grammatik bilimlar berish bilan cheklanmay o'qish savodxonligiga oid matnlar va matndan tashqari holatda o'z nutqini to'g'ri tuza olishi, muloqot jarayoniga oson kirishishiga zamin yaratishi kerak. Shu davrgacha

bo'lgan ona tili darslarimizning asosiy maqsadi grammatik bilimlarni boyitishga yo'naltirilgan edi. Bu holat PISA sinovlari natijalariga ko'ra u qadar o'zini oqlamagandek ko'rinadi. Fikrimizcha, ona tili fani o'qitilishi o'quvchilarda to'g'ri va tartibli nutq tuzish, jamiyatda o'z o'rnini topish, muloqotga kirishib ketishlari uchun zamin yaratuvchi mustahkam ko'priklar vazifasini o'tashi kerak.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ona tili fanining qay darajada to'g'ri o'qitilishi o'quvchilarning kelajakdagi faoliyatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Chunki turmushning qaysi jabhasida faoliyat ko'rsatmasin atrofdagilar bilan muloqot qilishga to'g'ri keladi. Bu esa ta'lim jarayonida shakllangan ko'nikmalar asosida rivojlanadi. Aynan, matn bilan ishlashni bilgan o'quvchida o'qib tushunish ko'nikmalari ham rivojlangan bo'ladi. Shularni hisobga olgan holda ona tili o'qitishda rivojlantirishga yo'naltirilgan metodlar asosida o'qitish soha mutaxassislari oldidagi muhim vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ismadiyorova Nafisaxon o'zining "O'qish savodxonligini rivojlantirish xalqaro tadqiqotlarning asosi sifatida" https://api.scienceweb.uz/storage/publication_files/7513/20881/65c70f992cd9c_Nafisa%20Ismadiyorova.pdf
2. PISA- 2018 o'qish savodxonligi qamrov doirasi. "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo'limi" TOSHKENT — 2021
3. Qurbanova L.M., PISA xalqaro baholash dasturining amaliy ahamiyati. <https://cyberleninka.ru/article/n/pisa-xalqaro-baholash-dasturining-amaliy-ahamiyati/pdf>
4. Rahmonov Sh.T. Ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim maktablari 7-9- sinf o'quvchilarini xalqaro PISA tadqiqotlariga tayyorlash (tabiiy fanlar misolida). PhD dissertatsiya avtoreferati 13,14-b. <https://kun.uz/news/2023/12/07/pisa-natijalari-elon-qilindi>
ozbekistonlik oquvchilar-oxirgi-10-talikdan-joy-oldi

5. KU Kuchkarovich [Psychological Significance OF the Study Chess Players' Volitional Qualities in the Physical Training](#) - European Journal of Innovation in Nonformal ..., 2022
6. Abdullayeva, M. O. (2024). Pisa xalqaro baholash mezonlarida o'z qish savodxonligiga qo'yilgan talablar. *Academic research in educational sciences*, (1), 123-126.
7. Mamajonova, N. (2022). Til darslarida lug'at boyligini oshirishni ilmiy tadqiq qilish. *Scientific journal of the Fergana State University*, (1), 44-44.
8. Mirzaevich, G. I. (2026). Ethnic Stereotypes in the Phraseologisms of the Uzbek, Kazakh and Karakalpak Languages. *Asian Journal of Arts and Culture*, 26(1), e23-e23.
9. Saifnazarov, I., Musaev, F., Khusanov, B., Ernazarova, Y., Xujaev, M., Bekbaev, R., & Ochilova, N. (2025). The Impact of Local Community Education on Sustainable Practices in Eco-Tourism Areas. *Natural & Engineering Sciences*, 10(3).
10. Jurayeva, N., Sultanov, R., Abdullayeva, S., & Rakhimjonova, V. (2020). Systematization of word combinations in the uzbek language. *Sci. World*, 6, 65-68.
11. Ibragimova, D. I. (2022). Zamonaviy maktablarda adabiyot fanini o'qitish muammolari. Buyuk ipak yo'lida umuminsoniy va milliy qadriyatlar, 1(2), 333–335.
12. Xujaev, M. (2020). Mahmudkhuja Behbudiy as a leader of jadid reforms. *The Light of Islam*, 3, 39-47.
13. Evlen, H., Juraev, D., Ziyamukhamedova, U., Khujaev, M., & Jalilov, F. (2025). PLA/Ti6Al4V composite scaffolds for bone tissue engineering: mechanical and thermal properties via FDM and bioprinting. *Journal of Biomaterials Science, Polymer Edition*, 1-25.